



TABIY FANLARDA DARS DAN TASHQARI VA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Sh.R.Nurmatova

*Jizzax shahar Maktabgacha va maktab
ta'limi bo'limiga qarashli 10-sonli
umumta'lim maktabi tabiiy fan
o'qituvchisi*

K.R.Xamraqulov

*Jizzax shahar Maktabgacha va maktab
ta'limi bo'limiga qarashli 10-sonli
umumta'lim maktabi biologiya fani
o'qituvchisi.*

Annotatsiya. *Maqolada biologiya fanidan darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishning ahamiyati va o'quvchilar faolligini oshirishda o'qituvchining roli haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, texnologiya, SCIENS (tabiiy fan), darsdan tashqari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar*

Аннотация. *В статье рассматривается важность организации внеклассной и внеурочной деятельности по биологии и роль учителя в повышении активности учащихся.*

Ключевые слова: *Образование, технология, НАУКА (естественные науки), внеклассная деятельность, внеклассные мероприятия*

Abstract. *The article discusses the importance of organizing extracurricular and extracurricular activities in biology and the role of the teacher in increasing student activity.*

Keywords: *Education, technology, SCIENCE (natural science), extracurricular, extracurricular activities*

Bugungi kunda hamma sohada bo'lgani kabi ta'limda ham ko'plab islohotlar qilinayapti. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ya'ni axborot kompyuter texnologiyalardan oqilona foydalanib, ta'limdagi innovatsiyalarni yosh avlod ongiga singdirish hozirgi zamon talabiga aylanib ulgurdi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga faqat ma'lumotni taqdim etishdan iborat emas. Avvalombor, o'qituvchining o'zi o'quvchilarga muayyan tushuncha yoki ko'nikmalarni egallash



nima uchun muhim ekanligini anglashi va so'ngra bu ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarda kerakli tushuncha yoki ko'nikmani rivojlantirishga yordam beradigan o'quv topshiriqlarni qo'llashi zarur. O'qituvchining pedagogik mahorati nafaqat dars mashg'ulotlarida, balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'quvchilarga yangi bilimlarni tushunarli va kundalik hayotga bog'lagan holda yetkazib berishiga bog'liq. Pedagog-inson qalbining muhandisi ekanligini anglagan holda o'z kasbini sevishi va fikrlashdan, faollikdan, ilm olishdan, daxldorlikdan hech qachon to'xtamasligi kerak. Bu esa bolaning manfaatlarini to'g'ri yo'naltirishga, u uchun zarur ko'nikmalarni shakllantirishiga imkon beradi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ta'lim-tarbiya jarayoning ajralmas tarkibiy qismidir. U darslarda olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini mustahkamlab va to'ldirib borishi bilan birga o'quvchilarni pedagogik ta'sir ostiga to'la ravishda jalb etishga hamda dars uchun ajratilgan vaqt ichida amalga oshirilishi qiyin bo'lgan yoki butunlay iloji bo'lmagan bir qancha muhim tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga yordam beradi. O'quvchining qiziqish va intilishlari bo'yicha biror-bir pedagogik faoliyatni 45 daqiqalik dars davomida to'la-to'kis amalga oshirish mushkul vazifa sanaladi. Bu vazifani o'quvchilar bilan ularni qiziqtirgan mavzular bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilangina maqsadga muvofiq ravishda hal qilish mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Barchamizga ma'lumki, sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar fan o'qituvchilari rahbarligida darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O'quvchilarning biologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishida o'quvchilar saroylari, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar, to'ga-rak ishlari, mustaqil ishlarni ko'rsatish mumkin. Ommaviy ishlarga maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqishlar kiradi. To'garak ishlariga esa o'quvchilarning to'garak mashg'ulotlarida qatnashish-lari kiradi. Mustaqil ishlar ham o'z navbatida o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, mustaqil ravishda biologiya faniga oid amaliy mashg'ulolarini bajarishlarini o'z ichiga oladi.



Tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarning maqsadi - bolalarda bilim va tabiatga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi belgilashiga yordamlashish, ularni jamiyat hayotiga moslashtirish, sog'lom turmush tarzini joriy etishdir.

Tabiiy fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

1. O'quvchilarning turli faoliyat turlariga qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini aniqlash;
2. Har bir bolaning sinfdan tashqari faoliyat sohasida rivojlanishi uchun sharoit yaratish;
3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini shakllantirish;
4. Ijodiy faoliyat tajribasini, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
5. O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
6. Maktab o'quvchilari va jamiyat o'rtasidagi aloqa doirasini kengaytirish;
7. O'qishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan individual tarzda olib boriladigan ishlar.

Buyuk mutafakkir, ensiklopedist olim Abu Rayxon Beruniy o'quvchilarning diqqatini jalb qilish, mashg'ulotlar davomida o'quvchini zeriktirib qo'ymaslik uchun ta'lim olishning turli yo'llari, shakl va metodlari ustida to'xtaladi. U "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirmaslik, qayta-qayta matn o'qib berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi..."- deydi[1]. Beruniyning ta'kidlashicha, bilim olishda imkoniyat yaratish, bilimlarni egallash uchun o'quvchilarda intilish va qiziqish bo'lishi kerak.

Beruniy ilm olish yo'li bilan dunyoni bilishning bosqichlarini ko'rsatib beradi. Olim asosiy pedagogik, didaktik talab deb taqqoslash, mashq, tajribalar o'tkazishni biladi, bular bilim olishdagi uzviylikni yaxshilaydi. Beruniy o'z davrida mavjud bo'lgan aniq faktlardan har birining maqsad va vazifalarini o'quvchi ongiga to'liq yetkazilgan bo'lishini talab qiladi. Beruniy hamma fanlarni biri-biri bilan bog'liq holda o'rganish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa bugungi kunda 1-6-sinflar o'quvchilarga Tabiiy fan (Sciens) fanlari hisoblangan fizika, geografiya, biologiya va kimyo fanlari integratsiyasining qanchalik ahamiyatli ekanligini o'z zamonasidan turib bashorat qilganligini anglatadi.



Sinfдан tashqari va darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ko'nikmalarini rivojlantirish va ilmiy fikrlash qobiliyatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. O'qituvchi biologiya fanidan sinfdan tashqari va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishda dastavval o'quvchilarning egallagan bilimlarini mustahkamlab, amaliyotda qo'llashga yordam beradi. O'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirib, mustaqil ishlashlariga, guruhda ishlash orqali muammolarni hal qilib, eksperiment o'tkazishlariga imkoniyat beradi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning ilmiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, tadqiqot ishlarini olib borishlariga qiziqtiradi va o'quvchilarning faolligini oshirib, darslarga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi.

O'qituvchi biologiya fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va boshqarishda quyidagilarni e'tiborga olishi zarur:

1. Rejalashtirish: Mashg'ulotlar rejasi, mavzusi va uslubini belgilash
2. Resurslarni ta'minlash: Laboratoriya uskunalari va boshqa kerakli resurslarni ta'minlash
3. Guruhlarni shakllantirish: O'quvchilarni qiziqish va bilimlari bo'yicha guruhlariga ajratish
4. Baholash: O'quvchilarning ishi va progressini baholash, ularning rivojlanishini kuzatish

Biologiya to'garagiga o'quvchi ishtirokini oshirishda ularning fanga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vosita sanaladi.

Biologiya kechalarini o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning biologiyaga bo'lgan qiziqishini oshirish, bilim darajasini ko'tarish, ijodkorlikni rivojlantirish va faollashtirish hisoblanadi. Biologiya kechalarini quyidagi mavzularda tashkil etish mumkin: "Biologik mo'jizalar", "Biologiya olamida", "Biologiya va hayot", "Biologik tajribalar", "Biologiyani o'rganib kasb tanlayman".

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, ularning axloqiy, estetik, jismoniy tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Biz har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishimiz uchun, o'quvchilarni vatanparvarlik, milliy g'urur, insonparvarlik, adolat tug'usi, mas'uliyatlilik, mustaqillik, ijodiy fikrlash, jamoaviylik ruhida tarbiyalashimiz, shuningdek, kelajakda biror bir kasbni egallashlari uchun ko'rsatmalar berishimiz lozim.



Odatda biologiya darsliklaridagi har bir mavzu o'quvchilarda kelgusida biror bir kasbni egallashlariga undashi aniq. Masalan, shifokor, biotexnolog, seleksioner, genetik, agronom va boshqalar. Bu kasblarning barchasi zamirida biologiya fani turganini o'quvchi ongiga singdirish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Biologiya fani to'garagi a'zolarining biologiya sohasida izlanishlar olib borib, kelgusida biror kasbni egallashlari bu o'qituvchining yutug'i, albatta. Shunday ekan, nafaqat dars mashg'ulotlarini, balki to'garak mashg'ulotlarini ham qiziqarli tashkil etish talab etiladi. Har bir o'qituvchi mashg'ulotlarni innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etsa, bu albatta o'z natijasini beradi.

To'garakning yil davomidagi faoliyati to'g'risidagi hisobot ko'rgazma, ko'rik yoki bolalar ijodiyoti festivali shaklida amalga oshirilish mumkin. Zero, bu tadbir, avvalo, maktab o'quvchilarini nafaqat qiziqtirishi, balki ularni ana shunday hayratlanarli ilm olamiga jalb qilishi kerak. Shu bilan birga, muayyan hodisaning barcha mavjud bosqichlarini diqqat bilan rejalashtirish, ma'lumotni taqdim etish usullari va vositalarini tanlash, darsni tashkil etish turini aniqlash kerak.

Sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning yangi mavzuni puxta o'zlashtirishlari uchun pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan interaktiv metodlar, ta'limiy mashqlar barchasi ta'lim sifatini oshishiga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli Farmoni
2. Kasimov Asror Abdulloyevich Buxoro davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazishning nazariy asoslari" <https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.024>
3. www.sciencebox.uz
4. Ishmuhammedov R., Yuldasheva M. "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent-2013.